

FIZIKA FANIDAN TALABALARNING O'ZLASHTIRISH DARAJALARINI OSHIRISHDA KREATIV YONDASHUV

Irmatov Fozil Mo'minovich, Abduvaxobov Xondamir, Safarov Shaxzod

Jizzax davlat pedagogika instituti

e-mail: irmatov-fozil-84@mail.ru

Annotatsiya: *Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari va kasbiy faoliyatini sifatli, samarali tashkil etishga zamin yaratadi. O'qitishning didaktik ta'minotini kreativ yondashuv asosida tashkil etish dars jarayoni samaradorligini kafolatlaydi.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *didaktik ta'minot, xususiy metodika, o'qitish usullari, o'quv materiallari, o'qitish tamoyillar, kreativlik.*

Аннотация: *Обладание учителем креативных качеств направляет его на качественную и эффективную организацию личных способностей и профессиональной деятельности. Организация обучения на основе креативного подхода к дидактическому обеспечению гарантирует высокое качество учебного процесса.*

Ключевые слова и понятия: *дидактическая поддержка, частная методология, методы обучения и материалы, дидактические принципы, творчество.*

Annotation: *Possessing the teacher of creative internalss rules him to quality and effective organization of the personal capabilities and professional activity. Organization of educating on the basis of the creative approach to didactics providing guaranteed high quality of educational process.*

Key words: *didactic support, private methodology, teaching methods and materials, didactic principles, creativity.*

Kreativlik, ijodiy yondashish o'quv mashg'ulotlarini mavjud Davlat ta'lim standartlari (DTS) ga moslashtirish, qolaversa, o'qituvchilardan o'qitish jarayoniga nisbatan kreativ, ijodiy yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladigan metod, usul va vositalar mashg'ulotlarni metodik jihatdan samarali, to'g'ri olib borilishini ta'minlaydi.

O'quv materialini o'zlashtirish bosqichida ta'lim mazmunining o'quv modul (fan)lari bo'yicha yaratilgan DTS, o'quv rejasi va o'quv dasturi kabi me'yoriy hujjatlar, shuningdek, o'quv manbalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanma, yo'riqnoma, tavsiyanoma va shu kabilar)da aks etishni ta'minlanadi.

Kreativ yondashuv – termini AQSHda XX asrning 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, hislatilini bildiradi.

Fizika fanini o'qitishda talabalarning fanni yaxshi o'zlashtirishi uchun o'quv-uslubiy ta'minot muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan fanni o'qitishda ta'lim

texnologiyalaridan samarali foydalanish lozim. Fizika ta'limida modulli tizimlarni qo'llash ayniqsa diqqatga sazovor.

Fizikani o'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari namoyon bo'ladi:

- Fizika fani, tabiiy fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligi ta'minlanishi;

- har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayoni barcha turlarining uslubiy jihatdan asoslangan muvofiqligi o'rnatilishi;

- fizika fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;

- tahsil oluvchilar bilimini muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so'ng) qilinishi;

- tahsil oluvchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng, o'qituvchi ayrim tahsil oluvchilarga fanni individual o'zlashtirishni tavsiya etishi mumkin);

- axborotni «siqib» berish natijasida, o'qishni jadallashtirish, auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzavy, amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar, individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni - maqbullashtirish. Buning natijasida, tahsil oluvchi etarli bilimlarga ham, ko'nikmaga ham, malakaga ham ega bo'ladi.

O'quv mashg'ulotlarining rivojlantiruvchi funksiyasini ta'minlash uchun zamonaviy modulli yondashuv bo'yicha fizika fanidan ta'lim berish tizimini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga o'z fanini chuqur bilishi, bu fanning rivojlanish istiqbolini tahlil qila olishi hamda o'z bilimlarini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'rgatish ko'nikmalariga ega bo'lishi, har doim mustaqil ishlab bilim va malakasini zamon talabi asosida oshirib borishi zarur. YUqoridagi talablardan kelib chiqqan holda fizika darslarida fan o'qituvchisining o'z mashg'ulotlarini pedagogik an'anaviy usullarda, interfaol metodlarda maqsadli ravishda olib borish ta'limning samaradorligini oshiradi. Mashg'ulot samaradorligini oshirishda fizika fani o'qituvchisi mavzuning maqsadini belgilab olishi, noan'anaviy va an'anaviy darslarning farqini ko'ra bilishi natijasida o'zlashtirish ko'rsatkichini ko'tarish mumkin. Noan'anaviy mashg'ulotlardan maqsad-bo'lajak fizika o'qituvchisining o'zlashtirish ko'rsatkichini ko'tarish uchun fizika fanini o'qitishda, laboratoriya yoki seminar mashg'ulotlarini yanada mazmunli, qiziqarli va tushunarli o'tkazishda pedagog va bo'lajak fizika o'qituvchisi faoliyatiga yangilik kiritib, interfaol metodlardan foydalanish hamda ularni tez va samarali baholashga erishishdir.

Demak, fizika fanini o'qitishda ta'lim uzviyligini ta'minlagan holda guruhlarga bo'lib o'qitish ma'lum ma'noda sifat ko'rsatkichini oshiradi. Natijada, birinchidan

guruhlar orasida sogʻlom muhit yaratiladi, raqobat vujudga keladi, mavzuni oʻzlashtirish sifati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Saydaxmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. -Toshkent, 1999.
2. Saydaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qoʻllash. - Toshkent, 2000.
3. Azizxoʻjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Oʻquv qoʻllanma - T.: 2003, TDPU.
4. Azizxoʻjaeva N.N. Oʻquv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2007.
5. Azimov I. va boshqalar. Metodik qoʻllanma. - T., Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002 yil.
6. Усмонбоева М., Тўраев А. Креатив педагогика асослари. Ўқув – услубий мажмуа. - Т.:ТДПУ 2016
7. Усмонбоева М., Тўраев А. Креатив педагогика асослари. - ЎУМ. ТДПУ, 2016
8. Irmatov FM Efficiency of modular teaching of physics for non-physical specialties. innovative technologies in modern education -P. 228-231.
9. Ирматов Ф. М. Эффективность современных образовательных технологий в педагогическом процессе (на примере обучения физике). Научное знание современности. –Казан. 2019. -С. 34-37.
10. Ирматов Ф. М. Особенности обучения нефизическим специальностям студентов. Образование и культура. Международная научно-практическая конференция «Наука, образование, культура», Посвященная 29-ой годовщине Комратского государственного университета. Комрат. –С. 130-132.
11. Ирматов Ф. М. Эффективность модульного обучения физики для нефизических специальностей. Инновационные технологии в современном образовании. –С. 228-231.
12. Irmatov F. Advantages of teaching physics on the credit system. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12). - Great Britain. –P. 60-64.
13. Ирматов Ф. М. Инновационные технологии в физическом образовании. Актуальные проблемы модернизации высшей школы: резервы отечественной высшей школы в совершенствовании

профессиональной подготовки специалистов. Материалы XXXI Всероссийской научно-методической конференции с международным участием. –Новосибирск, 29 января 2020 г. –С. 117-119.

- 14.Ирматов Ф. М. Повышение уровня успеваемости по физике студентов в педагогических вузах посредством современных образовательных технологий. Современное государственное и муниципальное управление: проблемы, технологии, перспективы. VI Международной научно-практической конференции. – Донецк. 2020. –С. 117-119
- 15.Ismailov T.J, Tagaev X, Kholmatov P.K, Yusupov K.Y, Alkarov K.Kh, Orishev Zh.B Karimov O.O. (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.
- 16.Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
- 17.Orishev, J., & Оришева, З. (2021). “METROLOGIK O’LCHOVLAR” MAVZUSINI O’QITISHDA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH . *Физико-технологического образование*, 2(2).
- 18.Orishev, J. (2020). ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ПЕДАГОГЛИК МАСЪУЛИЯТИ . *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, 1(1).
- 19.Оришев, Ж. Б. (2019). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Интернаука*, (43-2), 70-72
- 20.Убайдуллаев, С., Оришев, Ж. Б., & Ортикова, О. Ш. (2019). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМДА" ДАРСЛАРДА ЭКОЛОГИК ТАНАФФУС" ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИГА АСОСЛАНГАН ЭЛЕКТРОН ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ. *Интернаука*, (20-3), 62-63.
- 21.Низомов, Ш., & Оришев, Ж. Б. (2020). МЕТАЛЛАРНИНГ ХОССАЛАРИ MAVZUSINI ЎҚИТИШДА ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Научное знание современности*, (2), 48-52.
- 22.Orishev, J. V. (2020). Электротехника материалларининг физик асослари. *Архив Научных Публикаций JSPI*.

- 23.Orishev, J. B. (2020). Электрлаштирилган жиҳозлар мавзуларини ўқитиш услубияти. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 24.Orishev, J. B. (2020). Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда физика ва машинашунослик фанлари орасидаги боғлиқлик ҳамда узвийлик. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 25.Orishev, J. B. (2020). Электротехника фанидан талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 26.Orishev, J. (2020). Электротехника фанида мавзулараро алоқадорликни ўрганишга тизимли ёндошув. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
- 27.Orishev, J. (2020). Электротехника фанини ўқитишда кўмакчи компьютерли тизимнинг қўллашнинг педагогик самаралари. *Архив Научных Публикаций JSPI*